



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 184 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvaxon Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	



GERONTOTEXNOLOGIYA IJTIMOIY-PEDAGOGIK INNOVATSIYA SIFATIDA

Temirova Muyassar Abdukarim qizi

Nizomiy nomidagi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Xaydarov Mamat Eshqulovich

Nizomiy nomidagi O'zMPU

"Umumiy pedagogika" kafedrası professori, p.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqolada gerontotexnologiyaning mohiyati, uning ijtimoiy pedagogik innovatsiya sifatidagi ahamiyati, keksalar bilan ishlashdagi texnologik yondashuvlar va zamonaviy tendensiyalar tahlil qilinadi. Gerontotexnologiya keksalarning hayot sifatini yaxshilash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va zamonaviy ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirishda muhim innovatsion vosita hisoblanadi. Shuningdek, gerontopedagogika va texnologik yondashuv integratsiyasi asosida samarali ijtimoiy xizmat ko'rsatishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib beriladi. Xorijiy tajriba, xususan, rivojlangan mamlakatlarda keksalar ta'limi sohasidagi ilg'or usullar va innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Komparativistik tahlil orqali O'zbekistondagi keksalarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun gerontotexnologik metodlar ishlab chiqiladi. Maqola ta'lim sohasi mutaxassislari, ijtimoiy xodimlar va qariyalar bilan ishlovchi pedagoglar uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: gerontotexnologiya, innovatsiya, ijtimoiy pedagogika, keksalar, texnologik yondashuv, gerontopedagogika, hayot sifatini yaxshilash, ijtimoiy faollik.

Abstract: This article examines the essence of gerontechnology, its importance as a socio-pedagogical innovation, technological approaches in working with the elderly, and contemporary trends. Gerontechnology is considered a significant innovative tool for improving the quality of life of the elderly, enhancing their social activity, and advancing modern social services. The article also outlines key directions for effective social service delivery based on the integration of gerontopedagogy and technological approaches. Additionally, it reviews foreign experiences, particularly advanced methods and innovative approaches in elderly education in developed countries. Through comparative analysis, gerontechnological methods are developed to increase the social activity of the elderly in Uzbekistan. The article is of great importance for education specialists, social workers, and educators working with the elderly.

Key words: gerontechnology, innovation, socio-pedagogy, elderly, technological approach, gerontopedagogy, quality of life improvement, social activity.

Аннотация: В данной статье анализируется сущность геронтотехнологии, ее значение как социально-педагогической инновации, технологические подходы в работе с пожилыми людьми и современные тенденции. Геронтотехнология рассматривается как важный инновационный инструмент для улучшения качества жизни пожилых людей, повышения их социальной активности и развития современных социальных услуг. Также представлены основные направления эффективного оказания социальных услуг на основе интеграции геронтопедагогики и технологических подходов. Кроме того, рассматривается зарубежный опыт, в частности передовые методы и инновационные подходы в сфере образования пожилых людей в развитых странах. Посредством компаративистского анализа разрабатываются геронтотехнологические методы для повышения социальной активности пожилых людей в Узбекистане. Статья представляет значительную ценность для специалистов в области образования, социальных работников и педагогов, работающих с пожилыми людьми.

Ключевые слова: геронтотехнология, инновация, социальная педагогика, пожилые люди, технологический подход, геронтопедагогика, улучшение качества жизни, социальная активность.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda aholi qarishi global muammoga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2050 yilga kelib, 60 yoshdan oshgan odamlar soni 2 milliarddan oshadi. Bu tendensiya jamiyatdan keksalarga yo'naltirilgan yangi yondashuvlarni, xususan, ularning ijtimoiy faolligi va hayot sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni talab qilmoqda. Gerontotexnologiya – bu keksalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan texnologik yechimlar orqali ularning hayotini yaxshilashga xizmat qiluvchi fan va amaliyot sohasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston sharoitida gerontotexnologiyaning ahamiyati nafaqat keksalarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash, balki ularning faol hayot tarzini qo'llab-quvvatlash, sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratishda ham namoyon bo'ladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-martda qabul qilingan "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"¹gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentyabrda qabul qilingan "Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"²gi qarorini amaliy ifodasi va keksalar hayotiga kirib borishda gerontotexnologiya va gerontopedagogika kabi ijtimoiy fan va innovatsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Gerontotexnologiya – bu keksalarning fiziologik, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan texnologiyalarni tadqiq qilish va qo'llash sohasi. U tibbiyot, muhandislik, pedagogika va ijtimoiy fanlarning kesishmasida joylashgan. Gerontotexnologiyaning asosiy maqsadi – qariyalarning mustaqilligini ta'minlash, ularning ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlash va hayot sifatini yaxshilashdir.

TADQIQOT METODOLOFIYASI

Ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan, gerontotexnologiya keksalarga ta'lim va ijtimoiy faollik imkoniyatlarini kengaytirish orqali innovatsion yondashuv sifatida qaraladi. Masalan, smartfonlar va planshetlar orqali ta'lim dasturlari, virtual jamoalar va sog'liqni kuzatish ilovalari keksalarga yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va sog'lig'ini nazorat qilish imkonini beradi. Bu texnologiyalar nafaqat keksalarning hayotini osonlashtiradi, balki ularning jamiyatdagi faol ishtirokini rag'batlantiradi.

Gerontopedagogika va texnologiya integratsiyasi

Gerontopedagogika – keksalarning ta'lim va tarbiya jarayonlariga qaratilgan pedagogika sohasi bo'lib, u qariyalarning o'ziga xos kognitiv va psixologik xususiyatlarini hisobga oladi. Gerontotexnologiya bilan integratsiyalashganda, gerontopedagogika yanada samarali natijalarga erishadi

Xorijiy tajriba: Rivojlangan mamlakatlarda gerontotexnologiya

Rivojlangan mamlakatlarda gerontotexnologiya keksalar ta'limi va ijtimoiy xizmatlarida keng qo'llanilmoqda. Quyida bir nechta muvaffaqiyatli misollar keltiriladi:

- **Yaponiya:** Yaponiya keksalarga yo'naltirilgan robototexnika sohasida yetakchi hisoblanadi. Masalan, "Robear" roboti qariyalarga harakatlanishda yordam beradi, "Paro" terapevtik roboti esa demensiya bilan og'rigan bemorlarning psixologik holatini yaxshilaydi. Bundan tashqari, Yaponiyada keksalar uchun raqamli savodxonlik dasturlari keng tarqalgan.
- **Niderlandiya:** Bu mamlakatda keksalarni ijtimoiy faollikka jalb qilish uchun virtual jamoalar va onlayn platformalar faol ishlatiladi. "SilverFit" dasturi jismoniy faollikni rag'batlantirish uchun o'yinlashtirilgan mashqlarni taklif qiladi.
- **AQSh:** AQShda keksalarga yo'naltirilgan universitetlar (Osher Lifelong Learning Institutes) va onlayn ta'lim platformalari keng rivojlangan. Shuningdek, "GrandPad" plansheti keksalarga moslashtirilgan interfeysi orqali aloqa va ta'lim imkoniyatlarini taqdim etadi.

Bu tajribalar O'zbekistonda gerontotexnologiyani rivojlantirish uchun muhim saboq bo'la oladi. Xususan, Yaponiya tajribasi mahalliy sharoitlarda iqtisodiy jihatdan samarali texnologiyalarni joriy etishda foydali bo'lishi mumkin.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.03.2023 yildagi PQ-92-son. "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-6404992>

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.09.2019 yildagi 816-son. Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-4532381>



TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlarda gerontotexnologiyalarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. Tibbiy va monitoring texnologiyalari:

- **Masofaviy monitoring:** Aqlli soatlar, sensorli qurilmalar (masalan, Fitbit, Apple Watch) va uyda o'rnatilgan sensorlar keksa odamlarning yurak urishi, qon bosimi, uyqu sifati va harakat faolligini kuzatadi. Masalan, Yaponiyada va AQShda sensorli pollar yiqilishni aniqlash uchun ishlatiladi;
- **Telemeditsina:** Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarida keksa odamlar masofadan shifokorlar bilan maslahatlashadi, bu ayniqsa harakatchanligi cheklangan bemorlar uchun qulay;
- **Robot-yordamchilar:** Yaponiyada "RoBoHoN" va "Robear" kabi robotlar keksa odamlarga harakatlanishda yordam beradi, dori-darmonlarni eslatadi va ijtimoiy muloqotni ta'minlaydi.

2. Yiqilishning oldini olish texnologiyalari:

- **Aqlli tayoglar va yurish moslamalari:** Kanadada va Buyuk Britaniyada GPS va sensorli tayoglar ishlab chiqilgan bo'lib, ular muvozanat yo'qotilganini aniqlaydi va signal beradi;
- **Aqlli uy tizimlari:** AQSh va Niderlandiyada uylarga o'rnatilgan aqlli yorug'lik va avtomatik eshiklar yiqilish xavfini kamaytiradi;
- **Taqiladigan qurilmalar:** Avstraliyada "FallCall" kabi qurilmalar yiqilishni aniqlab, avtomatik ravishda yordam chaqiradi.

3. Kognitiv va ijtimoiy yordam texnologiyalari:

- **Kognitiv o'yinlar va ilovalar:** AQSh va Yevropada "Lumosity" va "BrainHQ" kabi ilovalar kognitiv funksiyalarni (xotira, diqqat) mustahkamlashga yordam beradi, ayniqsa Parkinson yoki demensiya bilan kasallanganlar uchun;
- **Virtual haqiqat (VR):** Singapur va Shvetsiyada VR reabilitatsiya dasturlari keksa odamlarning motor va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladi;
- **Ijtimoiy robotlar:** Yaponiyada "Pepper" roboti keksa odamlar bilan suhbatlashadi va ijtimoiy izolyatsiyani kamaytiradi.

4. Ta'lim va o'z-o'ziga g'amxo'rlik texnologiyalari:

- **Elektron ta'lim platformalari:** Buyuk Britaniyada va Kanadada keksa odamlar uchun sog'lom turmush tarzi va yiqilishning oldini olish bo'yicha onlayn kurslar mavjud;
- **Mobil ilovalar:** "SilverFit" (Niderlandiya) kabi ilovalar keksa odamlarga jismoniy mashqlar va o'z-o'ziga g'amxo'rlik bo'yicha maslahatlar beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda gerontotexnologiyalarning xususiyatlari

- **Yuqori sarmoya va tadqiqotlar:** AQSh, Yaponiya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar gerontotexnologiyalarni rivojlantirishga katta mablag' ajratadi. Masalan, Yaponiya qarigan aholiga mos robototexnikaga yetakchilik qiladi;
- **Integratsiya:** Sog'liqni saqlash tizimlari bilan birlashgan texnologiyalar (masalan, Shvetsiyada elektron sog'liq yozuvlari bilan integratsiya) keng tarqalgan;
- **Foydalanuvchiga moslashuvchanlik:** Qurilmalar keksa odamlarning fiziologik va kognitiv cheklovlariga moslashtiriladi, masalan, katta shriftli interfeyslar yoki ovozli boshqaruv;
- **Davlat qo'llab-quvvatlashi:** Skandinaviya mamlakatlari va Kanada kabi davlatlar gerontotexnologiyalarni subsidiyalash orqali ularni arzonlashtiradi.

Gerontotexnologiya sohasidagi qiyinchiliklar

- **Narx:** Yuqori texnologiyalar (masalan, robotlar) qimmat bo'lib, hamma uchun ham mavjud emas;
- **Texnologiyaga ishonchsizlik:** Keksa odamlar yangi qurilmalarni qabul qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin;
- **Ma'lumotlar maxfiyligi:** Tibbiy ma'lumotlarni monitoring qiluvchi qurilmalar maxfiylik muammolarini keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda gerontotexnologiyani qo'llash istiqbollari

O'zbekistonda gerontotexnologiyalarni qo'llash istiqbollari hali dastlabki bosqichda bo'lsa-da, mamlakatning demografik o'zgarishlari, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan siyosati va sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar bu sohada katta salohiyatni ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda aholi qarishi tendensiyasi kuchaymoqti va keksalarni ijtimoiy faollikka jalb qilish masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Gerontotexnologiyani rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar taklif etiladi:

- **Masofaviy sog'liq monitoringi:** Taqiladigan qurilmalar (aqlli soatlar, sensorlar) yordamida keksa odamlarning yurak urishi, qon bosimi yoki yiqilish xavfini kuzatish mumkin. O'zbekistonda telemeditsina rivojlanayotgani bunday tizimlarni joriy etishni osonlashtiradi;
- **Ta'lim va o'z-o'ziga g'amxo'rlik ilovalari:** Keksalar uchun sog'lom turmush tarzi va yiqilishning oldini olish bo'yicha mobil ilovalar ishlab chiqish. Masalan, Parkinson kasalligi bo'lgan bemorlar uchun kognitiv mashqlar yoki jismoniy faollikni rag'batlantiruvchi dasturlar;
- **Aqlli uy texnologiyalari:** Sensorli yorug'lik tizimlari, avtomatik eshiklar va yiqilishni aniqlovchi qurilmalar uy sharoitida keksa odamlarning xavfsizligini oshirishi mumkin;
- **Robot-yordamchilar:** Yaponiya tajribasidan foydalanib, kelajakda dori-darmon eslatuvchi yoki harakatda yordam beruvchi oddiy robotlar ishlab chiqarish mumkin;
- **Mahalliy xususiyatlarga moslashtirish:** O'zbekistonda oilaviy qadriyatlar muhim bo'lib, gerontotexnologiyalar oila a'zolari va parvarish qiluvchilar bilan integratsiya qilinishi mumkin (masalan, masofaviy monitoring orqali farzandlar ota-onasining sog'lig'ini kuzatishi mumkin);
- **Ta'lim tashabbuslari:** Keksalar uchun ularning oilalariga texnologiyalardan foydalanishni o'rgatish uchun seminarlar va mahalliy jamoalar bilan hamkorlik;
- **Xalqaro tajriba:** Yaponiya, Janubiy Koreya va Yevropa tajribalarini o'rganish orqali telemeditsina va aqlli qurilmalarni joriy etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Gerontotexnologiya ijtimoiy pedagogik innovatsiya sifatida keksalarning hayot sifatini yaxshilash va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga jalb qilishda muhim vosita hisoblanadi. Gerontopedagogika bilan integratsiyalashgan bu soha keksalarga yangi ta'lim imkoniyatlarini taqdim etadi, ularning mustaqilligini ta'minlaydi va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantiradi. Xorijiy tajriba, xususan, Yaponiya va Niderlandiya kabi mamlakatlardagi muvaffaqiyatli amaliyotlar O'zbekistonda gerontotexnologiyani rivojlantirish uchun muhim yo'l-yo'riq bo'la oladi. Mahalliy sharoitlarda ushbu sohani rivojlantirish uchun raqamli savodxonlik dasturlari, sog'liqni monitoring qilish tizimlari va ta'lim platformalariga e'tibor qaratish zarur. Bundan tashqari, O'zbek tilida foydalanuvchilarga qulay ilovalar ishlab chiqish (ayniqsa, kognitiv va jismoniy mashqlar uchun), gerontotexnologiyalar bo'yicha mahalliy tadqiqotlarni rivojlantirish va davlat grantlari ajratish, Sog'liqni saqlash vazirligi, AKT vazirligi va xalqaro tashkilotlar (masalan, BMTTD) bilan birgalikda pilot loyihalar boshlash, gerontotexnologiyalar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun IT-parklar va universitetlarda maxsus kurslar ochish, keksalarga moslashtirilgan onlayn kurslar, masalan, sog'lom turmush tarzi, hunarmandchilik yoki o'zbek adabiyoti bo'yicha darslar tashkil etish orqali gerontotexnologiya sohasini yanada rivojlantirish lozim.

Shuningdek, keksalar va ma'lum bir sohalarida yuqori tajribali nafaqadagi mutaxassislarning hayotining ijtimoiy hayot uzluksizligini saqlab qolish, hamda o'z hayot tajribalari bilan yoshlarning tarbiyasi va ma'lum bir kasb mutaxassislarga tavsiyalari ijtimoiy hayotdagi o'z o'rnini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mening taklifim, kompaniyalarda, universitetlarda, institutlarda va boshqa ta'lim tashkilotlarida nafaqadagi keksalar va soha mutaxassislari bilan yosh mutaxassislar o'rtasida hayotiy tajriba almashinuv darslarini tashkil qilish bu orqali yosh kadrlarning kelgusi hayotida yordam beradigan qimmatli va ahamiyatli tavsiyalarga ega bo'ladilar.

Ushbu yondashuvlar keksalarning ijtimoiy faolligini oshirishga va ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.03.2023 yildagi PQ-92-son. "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-6404992>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.09.2019 yildagi 816-son. Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-4532381>
3. Instituto Brasileiro de Geografia e Estatística (IBGE). (2020). Projeções da População do Brasil e das Unidades da Federação. Retrieved from <https://www.ibge.gov.br/>
4. World Health Organization (WHO). (2022). Ageing and health. Retrieved from <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/ageing-and-health>
5. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. (2020). World Population Ageing 2020 Highlights. New York: United Nations.
6. Ministério da Saúde do Brasil. (2018). Saúde do Idoso: Relatório de Vigilância Epidemiológica. Brasília: Ministério da Saúde.
7. Tysnes, O. B., & Storstein, A. (2017). Epidemiology of Parkinson's disease. *Journal of Neural Transmission*, 124(8), 901–905. <https://doi.org/10.1007/s00702-017-1686-y>
8. Gillespie, L. D., Robertson, M. C., Gillespie, W. J., et al. (2012). Interventions for preventing falls in older people living in the community. *Cochrane Database of Systematic Reviews*, (9), CD007146. <https://doi.org/10.1002/14651858.CD007146.pub3>
9. Canning, C. G., Paul, S. S., & Nieuwboer, A. (2014). Prevention of falls in Parkinson's disease: A review of fall risk factors and the role of physical interventions. *Neurodegenerative Disease Management*, 4(3), 203–221. <https://doi.org/10.2217/nmt.14.22>
10. Thurman, D. J., Stevens, J. A., & Rao, J. K. (2008). Epidemiology of falls and fall-related injuries among older adults. *Journal of Safety Research*, 39(2), 137–140. <https://doi.org/10.1016/j.jsr.2008.02.003>
11. Czaja, S. J., Boot, W. R., Charness, N., & Rogers, W. A. (2019). *Designing for older adults: Principles and creative human factors approaches* (3rd ed.). Boca Raton: CRC Press.
12. Sixsmith, A. (2013). Technology and the challenge of aging. In A. Sixsmith & G. Gutman (Eds.), *Technologies for active aging* (pp. 7–25). New York: Springer.
13. Sixsmith, A. (2018). *Gerontechnology: Technology and the Older Person*. Springer.
14. Schulz, R., Wahl, H. W., Matthews, J. T., et al. (2015). Advancing the aging and technology agenda in gerontology. *The Gerontologist*, 55(5), 724–734. <https://doi.org/10.1093/geront/gnu071>.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.